



**MILLIY XOS SO'ZLAR YOKI REALIYALAR VA ULARNING TARJIMADA AKS  
ETISH**

**Normatov Surayyo**

**Qudratova Shukrona**

**Jumayeva Dilnura**

*DTPI instituti xorijiy til va adabiyoti yonalishi 4 kurs talabalari*

**Annotatsiya :** *Ushbu maqolaning asosiy vazifasi mamlakatlarga xos bo'lgan so'zlar va iboralar, ya'ni realiyalar Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida qanday qo'llanganligi va ularning tahlili haqida ma'lumot taqdim etishdan iborat. Tarjimon tarjima jarayonida ma'lum bir mamlakatning lingvistik vogeliklari, ularning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari bilan to'qnash keladi.*

**Abstract:** *The main task of this article is to provide information about how the words and phrases specific to countries, that is, realities, are used in Abdulla Qadiri's novel "The Scorpion from the Altar" and their analysis. During the translation process, the translator encounters the linguistic realities of a certain country, their socio-cultural characteristics.*

**Kalit so'zlar:** *realiyalar, mahdum, mehrob, paranji, bo'g'joma, salla, yaxtak, chiviq, paxsakvivalentlik, geografik realiyalar, etnografik, ijtimoiy-siyosiy realiyalar, leksik birliliklar.*

### **KIRISH**

Tilshunoslikdan ma'lumki, til va madaniyatning o'zaro munosabatini o'raganadigan soha lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biri realiyadir.

Realiya tarjimashunoslik, qiyosiy-tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnolingvistikaga oid tadqiqotlarda tillararo va madaniyatlararo farqlarni o'rganishda muhim o'rinn tutadi. Realiya madaniy munosabatlar darajasini yoritishga xizmat qiladi, xalqning turmush tarziga oid tushunchalarni aks ettiradi. Realiyaning dastlabki ma'nosи madaniyatlarning o'ziga xos belgilarini aks ettiruvchi narsa-buyum haqidagi tushunchalardir. L.N.Sobolev fikriga ko'ra, ekvivalentlariga ega bo'limgan maishiy va o'ziga xos milliy so'zlar va iboralar, shuningdek, boshqa tillarda mavjud bo'limgan milliy turmush tarziga oid birliklar "realiya" hisoblanadi, Realiyalarni aks ettiruvchi tushunchalar milliy xususiyatga ega bo'lib negaki ushbu predmet va hodisalar boshqa mamlakatlarda mavjud bo'lmaydi.

Ekvalent bo'limgan lug'at deb ataladigan lug'atda moddiylashadi V.S. Vinogradov Lotin Amerikasi materialiga asoslanib, realiya muammosini ko'rib chiqadi. Olim o'rganilayotgan fon ma'lumotlarini yetkazuvchi leksik birliklar zaxirasini bir qancha tematik guruhlarga ajratadi:

**1. Kundalik hayotni tavsiflovchi lug'at:**

- a) turar joy, mult;
- v) oziq-ovqat, ichimliklar;
- b) kiyim-kechak, bosh kiyim;
- d) mehnat va kasb turlari;
- e) bank notalar, o'lchov birliklari;
- f) cholg'u asboblari, xalq o'yinlari va qo'shiqlari, ijrochilar;
- g) xalq bayramlari, o'yinlari;

O'z-o'zidan ma'lumki, muayyan xalq turmush tarzini ifoda etadigan so'zlargina bunday tushunchalarga ega bo'lмаган xalqlar tillariga tarjimasiz -asliyatdagi shaklida o'tkaziladi, shu tariqa tarjimada muallif matnining milliy bo'yog'i adekvat talqin etiladi. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muhit, davr, jamiyatdagi o'zgarish, shu jarayonni ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy leksemalarda o'z aksini topadi. Ma'lumki, har bir asar tili o'ziga xos leksik ko'lamiga ega. Bunga shu asar yaratilgan va asar voqealari ifodalangan davr, intralingvistik va ekstralinguistik omillar ta'sir qiladi. "Mehrobdan chayon" asari leksikasi XIX asr oxiri xonliklar davri XX asr jadidlar davriga oid ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, ma'rifiy-maishiy tushunchalarni aks ettiruvchi lug'aviy birliklarni qamrab oladi. Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asari leksikasi statistik tahlil qilingan hamda leksik birliklar tarixiy-etimologik jihatdan tadqiqi qilingan.

Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani juda ko'plab adabiyotshunos olimlar, yozuvchi, tadqiqotchilar va hatto tanqidchilar tomonidan tahlil va talqin qilingan. Bu asarda ko'plab realiyalarni misol keltirishimiz mumkin. Asar tahlili avvalida, **mehrob** so'zining ta'rifini keltirib o'tishimiz mumkin.

**1. Mehrob**<sup>1</sup>- bu masjid ichida uning qibla tomonidagi devorida taxmon shaklida qurilgan joy, namoz shu tomonga qarab o'qiladi; joyning yuqori, to'r qismi degani.

**2. Mahdum**<sup>2</sup> (mahsum) -(arabcha: ishga oluvchi, yollovchi)- ulamo va ruhoniylar, pir va ustozlarga beriladigan unvon, laqab va shu unvonga ega bo'lgan kishi.

**3. Paranj<sup>3</sup>** (2019.6) (arab, faranji — keng ko'yak) — ko'pchilik musulmon ayollarining yopinchig'i; chachvon bilan birga ansambl hosil qilgan. Ayollar gavdasini boshidan oyoq yashirib turishga xizmat qiladi.

**4. Alak**<sup>4</sup>(2019.14) – arqog'i va tanda ipi yarim pishitilgan ipdan to'qilgan mato dastaki dastgoh (qo'l do'kon)da turli rangda yo'l-yo'l qilib tayyorlangan. Alakdan to'n, ko'rpa va ko'rpacha tiqilgan. Alakning gullari yo'l-yo'l bo'lganidan qalami, ba'zi ingichka yo'llilari esa zevak deb nomlangan.

<sup>1</sup>Abdulla Qodiri. Mehrobdan chayon. Toshkent. 2019 p1

<sup>2</sup> Abdulla Qodiri. Mehrobdan chayon. Toshkent. 2019 p2

<sup>3</sup> Abdulla Qodiri. Mehrobdan chayon. Toshkent 2019 p6

<sup>4</sup> Abdulla Qodiri. Mehrobdan chayon. Toshkent 2019 p 14

**5. Guppi- chapon<sup>5</sup>(2019.14)** - Kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy kiyim; to‘n.

**6. Bo‘g‘joma<sup>6</sup>(2019.14)** - Kiyim-kechak, kiyimlik gazlamalar, eski-tuskilar tugib qo‘yiladi-gan katta mato; choyshab.

**7. Mahsi<sup>7</sup> (massi) (2019.15)** — mayin, pishiq qo‘y yoki echki terisidan tayyorlanadigan poshnasiz, baland qo‘njli poyabzal.

**8. Salla<sup>8</sup> (fors. — tugun)(2019.15)** — musulmon erkaklarning bosh kiyimi. Sidirg‘a (oq, yashil, kulrang va boshqalar) mato (asosan, doka)dan tayyorlanadi, eni 0,5 metr, uzunligi 1,5—3 metrdan 7 metrgacha o‘lchamda bo‘ladi. Ayrim manbalarda matoning uzunligi 5 metr bo‘lgani yaxshidir deyilgan.

**9. Banoras<sup>9</sup>(Hindistondagi Banoras shahri nomidan)(2019.15)** — tanda ipi shoyi, nimshoyi, arqog‘i ipdan to‘qiladigan pishiq mato, to‘qilishi beqasamga o‘xshash.

**10. Yaktak<sup>10</sup>(2019.15)** — yozgi, yengil kiyim; erkaklar ko‘ylagi. Oldi ochiq, uzun, yengli hamda tik yoqali to‘g‘ri bichimli, kalta (uzunligi asosan tizzagacha) va yalang qavat bo‘lishi bilan farq qiladi; asosan oq (bo‘z) surp, shuningdek yo‘l-yo‘l matolardan tikiladi. Ya. orqa-oldi yelkadan oshirib tashlangan yaxlit matodan tashkil topgan, uning ikki yoniga yonlar, yenglar tana qismiga to‘g‘ri ulanib, yeng va yonlar orasiga qulpak solingan.

**11. Sag‘ri kafsh<sup>11</sup>(2019.15)** - Otning sag‘ri terisidan tayyorlangan, kavush uchun ishlataladigan ko‘n, charm. ◆ Ko‘n-chilik korxonalarida sag‘ri tayyorlash muhim o‘rinni egallagan edi. F. Ozodayev, „Sanoat“ .

**12. Ugra<sup>12</sup>(ubra)** -- yupqa yoyilib, uzun va mayda qilib kesilgan xamirdan tayyorlanadigan taom. Tuppa (tuppi) – suyuq osh uchun ugraga nisbatan enliroq qilib tayyorlanadi.

**13. Jevak, javak<sup>13</sup>(fors, jev — arpa) (2019.24)** — ayollar bo‘yniga taqadigan bezak buyumi, taqinchoq.

**14. Supa<sup>14</sup>(2019.24)** — O‘rta Osiyo monumental me’morligida binolar bilan o‘ralgan hovli o‘rtasiga yoki chetiga (bino devoriga tutashtirib) ishlangan sahn. Hovli yuzasidan baland, usti ochiq yoki yopiq (ayvonga o‘xshash) bo‘ladi.

**15. Chiviq<sup>15</sup>(2019.30)** - gazlama turiga nisbatan ishlataladigan atama. Masalan, mayda chiziqchiziq yo‘lli gazlama chiviq gazlama deb ataladi.

<sup>5</sup> Abdulla Qodiriy .Mehrobdan chayon.Toshkent 2019 p14

<sup>6</sup> Abdulla Qodiriy.Mehrobdan chayon.Toshkent 2019 p14

<sup>7</sup> Abdulla Qodiriy.Mehrobdan chayon.Toshkent 2019 p15

<sup>8</sup> Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon . Toshkent 2019 p15

<sup>9</sup> Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. Toshkent 2019p15

<sup>10</sup> Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon.Toshkent.2019p15

<sup>11</sup> Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. Toshkent .2019p15

<sup>12</sup> Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon.Toshkent 2019p15

<sup>13</sup> Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon .Toshkent 2019 p24

<sup>14</sup> Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. Toshkent 2019 p24

<sup>15</sup> Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon.Toshkent 2019 p30

**16. Sarmunshiy, munshi** <sup>16</sup>(arab. — kotib, ijodkor)(2019.34) — O‘rta Osiyo xonliklari davrida xonlar yoki ayrim hokimlarning shaxsiy kotibi, yozuvchizuv ishlarini olib borgan shaxs. M. lavozimiga, odatda, ma’lumotli va husnixat kishilargina olingan.

**17. Domod** <sup>17</sup>(2019.34) - kuyov, qalliq.

**18. Paxsa** <sup>18</sup>(2019.41) — loy devor yoki uning qavati. O‘rta Osiyo me’morligida qadimdan ma’lum. Qadimda ba’zi shaharlarning devorlari, qal’a qo‘rg‘onlari Paxsadan ishlangan.

### XULOSA

Ushbu asarda realiyalardan foydalanishning bosh maqsadi, asardagi joyning, vaziyat va holatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qilishdir. Shuningdek, bu usul asarni badiiy tasvirlar bilan yanada boyitishga xizmat qiladi. Badiiy asarlarda ifodaviylikni, qahramon ichki kechinmalarini yaxshiroq qilib kitobxonlarga yetkazish uchun Abdulla Qodiriy asar davomida qahramonlar badiiy nutqini individuallashtirishdan foydalangan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” Toshkent-2019.
2. O‘zbek adabiy tanqidi Toshkent “Turon-Iqbol” 2011.
3. Hotam Umurov. O‘zbek adabiy tanqidi. O‘zbek romanida psixologizm printsiplari, shakllari va vositalari. – Toshkent: “Turon-iqbol”, 2011. – B.238
4. Miyon Buzruk. O‘zbek adabiy tanqidi. Mehrobdan chayon. -Toshkent: “Turon-iqbol”, 2011. – B.12-13.
5. Izzat Sulton. O‘zbek adabiy tanqidi. Abdulla Qodiriy va uning “Mehrobdan chayon” romani. – Toshkent: “Turon-iqbol”, 2011. – B.70.
6. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent., "Sharq". 2004. 143
7. Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy: Tanqid, Tahlil va talqin. Toshkent., "Fan". 2006. 52.

<sup>16</sup> Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon.Toshkent 2019p34

<sup>17</sup> Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon.Toshkent 2019 p34

<sup>18</sup> Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon.Toshkent 2019 p41